



JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA TASHKILOTCHILIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Djabborov Ma'sud Bahriddinovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Panjiyeva Gulzoda Eshdavlat qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Jismoniy madaniyat(xotin-qizlar sporti) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarining tashkilotchilik madaniyatini shakllantirish jarayoni va ularning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muallif jismoniy tarbiya darslarini samarali tashkil etishda o'qituvchining metodik, kommunikativ va boshqaruv kompetensiyalarining ahamiyatini ochib beradi. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdagi o'qituvchining tarbiyaviy roli chuqur yoritilgan. Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya ta'limini takomillashtirish, o'quvchilarning jismoniy va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Jismoniy tarbiya, o'qituvchi, tashkilotchilik madaniyati, pedagogik imkoniyatlar, metodik yondashuv, sport-ta'lim, tarbiya, sog'lom turmush tarzi, innovatsion texnologiyalar, kompetensiya.*

Mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ham jismoniy, ham ma'naviy sog'lom bo'lgan avlodni kamol toptirish hisoblanadi. Zero, bugun dunyo mamlakatlarida keskinlashayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida yuksak ma'naviyatli va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash Vatanimiz kelajagini belgilab beruvchi va xalqimizning ezgu maqsadlarini ro'yobga chiqaruvchi eng muhim omillardan biridir. Bu ezgu amalning amalga oshirilishida



uning huquqiy asoslari ham yaratilgan bo'lib, keng qamrovli ishlar qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son Qarori va 2018 yil 5 martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son Farmoni bu sohani yanada rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu farmon va qarorlarning asosiy maqsadlaridan biri ham bu sohadagi nazariy va amaliy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, jismoniy tarbiyaga oid ko'nikma va malakalarga doir tushuncha hamda atamalarni to'g'ri shakllantirishdan iborat.

Tashkilotchilik madaniyati — bu o'qituvchining mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarda jamoaviylik, tartib-intizom va tashabbuskorlikni shakllantirishdagi faoliyati va didiga asoslangan faol pedagogik yondashuvdir. Ayniqsa, jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun bu madaniyat muhim ahamiyatga ega, chunki ular o'quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishiga, balki ijtimoiy faolligi va shaxsiy mas'uliyatiga ham ta'sir ko'rsatadilar.

Tashkilotchilik madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari:

1. Pedagogik boshqaruv malakasi – dars va sport-tarbiyaviy tadbirlarni samarali rejalashtirish va olib borish qobiliyati.
2. Muloqot va motivatsiya berish ko'nikmalari – o'quvchilarning qiziqishi va ishtirokini oshirish.
3. Zamonaviy metodik yondashuvlar – innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish.
4. Jamoaviy ishlarni tashkil qilish – sport musobaqalari, estafeta va ommaviy jismoniy mashg'ulotlarni yuqori saviyada o'tkaza olish.



Jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Shaxsiy namuna bo'lish: O'qituvchi sog'lom turmush tarzini o'z hayotida namoyish qilishi kerak.

Tarbiya vositasi sifatida sportdan foydalanish: Sport orqali intizom, qat'iyat, do'stlik va hamkorlik ruhini singdirish.

Psixologik yetakchilik: O'qituvchilarning ichki motivatsiyasini aniqlash, ularga individual yondashuv ko'rsatish.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT)dan foydalanish: Sport darslarini jonli, vizual va tahliliy asosda olib borish.

Rus olimi I.P.Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida quyidagi fikrni bildiradi: "Pedagogik mahorat deganda o'qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko'nikmalarni mukammal egallashi, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuisiyasi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi".

Shuningdek, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik faoliyatida o'qituvchilik kasbiga sadoqatli bo'lish, o'z fanini o'qitish metodikasini mukammal bilishi, pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi, pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilishi eng muhim komponentlardan bo'lib hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, har bir bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi doimo o'qituvchilarga jismoniy mashqlarni yetkazish bilan birgalikda parallel ravishda uning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanib, u bilan o'zaro muloqot olib boradi. Har bir o'qituvchi aqliy, ruhiy va jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'lganligi sababli ham bo'lajak o'qituvchi ular bilan doimiy muloqotda bo'lishi, ularning har bir psixologik xarakteri va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'sir



ko'rsatish mexanizmlarini, avvalo, psixologiya va tarbiya nazariyasini mukammal tarzda o'rganib, o'z kasbiy faoliyatini doimiy rivojlantirib borishi zarur.

Bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilari ilmiy pedagogik faoliyati davomida quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi lozim deb hisoblaymiz:

- jismoniy tarbiyaga doir bilimlar tizimini mukammal egallagan bo'lishi;
- jismoniy mashqlarni o'quvchilarga to'laqonli yetkaza olish ko'nikma va malakasiga egaligi;
- o'z fanini o'zlashtirganligi bilan birgalikda umummetodologik fanlar asosini, xususan davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;
- atrofda sodir bo'layotgan ijtimoiy muammolar va jarayonlarni o'z nuqtai nazardan mustaqil tahlil qila olishi;
- o'quv jarayoni davomida o'quvchilarning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lib borishi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya o'qituvchilari faqatgina mashg'ulotlar o'tkazuvchi mutaxassislar emas, balki keng pedagogik imkoniyatlarga ega bo'lgan tarbiyachi shaxsdir. Ularning tashkilotchilik madaniyati – bu faqat tashkiliy ko'nikmalargina emas, balki pedagogik jarayonni samarali tashkil etish, o'quvchilarning jismoniy va ma'naviy rivojiga yetakchilik qilish, ularni jamoaviylikka, intizomga va sog'lom turmush tarziga yo'naltirish qobiliyatidir. Zamonaviy ta'lim talablari jismoniy tarbiya o'qituvchilaridan yuqori darajadagi kasbiy bilim, metodik mahorat, axborot texnologiyalaridan foydalana olish, hamda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlashni talab qilmoqda. Ayniqsa, sport va jismoniy faoliyat orqali yosh avlodning sog'ligini mustahkamlash, ularning psixologik barqarorligini ta'minlash va



ijtimoiy faolligini oshirishda o'qituvchining roli beqiyosdir. Shuningdek, tashkilotchilik madaniyatining shakllanishi o'qituvchining o'z ustida doimiy ishlashi, kasbiy rivojlanishiga intilishi va pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirishi bilan chambarchas bog'liq. Ular maktab va mahallalarda sport-sog'lomlashtirish muhitini yaratish orqali keng jamoatchilikni ham jalb eta oladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarida tashkilotchilik madaniyatini shakllantirish va pedagogik imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish, nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki sog'lom, ma'naviy yetuk, vatanparvar avlodni tarbiyalashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R., "Pedagogik texnologiyalar va pedagog mahorati". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
2. Qodirov A., "Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar", Ilm-fan va zamonaviy ta'lim, 2022-yil.
3. Bobonazarov M., "Zamonaviy ta'limda sport o'qituvchisining o'rni", Pedagogik mahorat jurnali, 2021.
4. B.X.Xodjayev , "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti", "Sano standart" nashriyoti Toshkent-2017.